

ERKAKLAR SPORT USLUBIDAGI UST KIYIMINI TIKISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

*Farg'ona politexnika instituti
Yengil Sanoat va To`qimachilik fakulteti katta o'qituvchi*

V.Homidov

*Farg'ona politexnika instituti
40-20 guruh talabalari*

**Mirzakbarov Shoxnazimbek
Mo'minov Ilxomjon**

Annotation: *Ushbu maqolada erkaklar sport uslubidagi ust kiyimining tikish texnologiyasini ishlab chiqishdagi yangiliklar ko`rsatilgan. Zamonaviy asbob uskunalar yordamida tikish bilan vaqt unumdarligi hamda korxona quvvati oshib borishi mumkinligi haqida takliflar keltirilgan.*

Abstract: *This article shows the innovations in the development of men's sport trousers sewing technology. In order to reduce the amount of time spent in the technological process and increase the quality of the product, changes have been made to joining the seams of clothes, choosing equipment for sewing convenience, and the order of sewing the sleeves of clothes.*

Keywords: *tikuv mashinasi, texnologik ketma ketlik, dazmol, ishlov berish usullari, maxsus mashina, biriktirma chok, yormalash, ish razryadi*

Key words: *sewing machine, technological sequence, iron, processing methods, special machine, joint seam, cutting, work flow*

Mustaqil Respublikamiz mehnatkashlarini o'sib borayotgan moddiy ehtiyojini har tomonlama qondirish masalasini hal qilishda yengil sanoat va uning eng yirik tarmog'i - tikuvchilik ishlab chiqarish zimmasiga muhim vazifa yuklatilgan. Tikuvchilik sanoati vazifasi O'zbekiston xalqini yuqori sifatlari keng assortimentdagi zamonaviy kiyimlar bilan ta'minlash. Tikuvchilik sanoatida ishlab chiqarish korxonalarini va firmalarni tashkil qilishni kengaytirish, tikuv korxonalarini ixtisoslashtirishni amalga oshirish, yangi texnika va texnologiyaga ega tayyorlov-bichish va pardozlash sexlarini tashkil qilish, tikuv buyumlarini tayyorlash bo'yicha yuqori unumli kompleks mexanizatsiyalashgan oqimlarni sanoatga tadbiq etish, texnologik konstruktsiya bo'yicha buyum ishlab chiqarishni tashkil etishni talab etadi. Respublikamizda hamma sohalar singari yengil sanoat sohasiga alohida e'tibor qaratilgan, chunki bizda paxta, ipak, jun kabi xomashyo mahsulotlari yetishtiriladi. Xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uni jahon bozoriga olib chiqish bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu esa sifatlari va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishdek mas'uliyatlari vazifani talab etadi. Hozirda yangi texnika va texnologiyaning respublikamizga kirib kelishi ham amaliy, ham nazariy bilimga ega bo'lgan, maxsus fanlardan chuqr bilimli ishchilar kerakligidan dalolat beradi. Tashkil etilayotgan kichik va o'rta korxonalar yirik korxonalar bilan hamkorlikda, shartnoma asosida faoliyat yuritish tizimini rivojlantirsa bu ikki tomon

uchun xam samarali bo'ladi. Bu borada respublikamizda bir qator samarali ishlar amalga oshirilib, kichik ishlab chiqarish korxonalaridan tortib, katta-katta qo'shma korxonalar tashkil etilib faoliyat yuritib, yurtimiz iqtisodiy rivojlanishiga o'z xissalarini qo'shmoqda.

Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni raqobatlantirish chora tadbirdari to'g'risidagi prezident qarori qabul qilindi.

Hozirgi paytda erkaklar sport uslubidagi ust kiyimiga ishlov berishda sezilarli o'zgarishlar bo'lmoqda. Sport uslubidagi ust kiyim gavda qismining silueti, hajmi va uzunligi turlicha uzunlik hamda turli shaklda tikilmoqda.

Sport uslubidagi ust kiyim tikish uchun turli gazlamalar bilan birga zamonaviy materiallar assortimenti ham ishlataladi.

Sport uslubidagi ust kiyim shakli va gazlama xususiyatiga ko'ra O'zbekiston iqlimi sharoitida barcha fasllarda kiyish uchun juda qulaydir. Bu sifatlar erkaklar sport uslubidagi ust kiyimining ommaviy kiyim bo'lib qolishining asosiy sabablaridir.

Odam qomatini chizish va gavda turish holatini yaratish asoslarini egallagandan so'ng, keyingi bosqich bu libos chizishni o'rganish. Bu mato va materiallarning assortimentini o'ziga hos hususiyatlarini va tasvirlash vositalarini o'rganish imkoniyatini beradi. Modellar yaratishda barcha foydalanadigan mato va materiallar ko'z o'ngida bo'lishi kerak.

Tikish jarayonining birinchi bosqichi kerakli turdag'i matoni tanlashdir. Mato tanlashda dizayner o'z dididan kelib chiqqan holda model uchun mos keladigan mato tanlashi lozim. Barcha kerakli ish qurorollari bilan ishlangan, ish mazmuni unumli bo'ladi.

Erkaklar sport uslubidagi usti kiyiminini tikishda korxonadagi ish quvvatini oshirish maqsadida tikish texnologiyasining konveyr usulidan foydalanish hamda o'z sohasida yetuk kadrlarnini ish bilan ta'minlashni taklif qilinadi. Mehnat unumdarligini oshirish uchun tikuv korxonasi dagi ish o'rnlari tog'ri tashkillash hamda ish darajasiga bog'liq holda ishlarni har xil razryadli ishchilarga to'g'ri taqsimlash lozim. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini baholashda mahsulotni tikish uchun foydalanilgan asbob uskunalar ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy avtomat va yarim avtomat tikuv mashinalari, presslar va dazmollar tanlash shu jumladandir.

Ishlab chiqarish korxonasida ish unumdarligini oshirish maqsadida tikish texnologiyasida quyidagi usullar taklif qilinadi.

-kiyimdag'i biriktirma choc foydalaniladigan choclariga dastlab biriktiruvchi choc so'ngra yormalash o'rniga zamonaviy mahsus mashinalar yordamida bir urinishda ham biriktirib ham yo'malab tikish

-kiyimni bichishda oddiy qaychi yoki pichoqlar o'rniga statsionar pichoqlardan foydalanib bichish

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kiyimning sifati nafaqat uni ishlov berish narxiga, shuningdek, unga ishlov berish uchun tanlangan jihoz va uskunalarga ham ko'p jihatdan uzviy bog'likdir. Shunga asoslanib, buyumni ishlab chiqarish uchun oqimni zamonaviy unumli jihozlar va kichik mexanizatsiya vositalari bilan jihozlab, vaqt sarfini tejash lozim.

Inson hayotining turli vaqtida sharoitga mos holda turli kiyimlar kiyiladi. Ayni shu bois kiyimlarni maishiy, ishlab chiqarishga mos va sport kiyimlari kabi turlarga ajratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. Sh.M. Mirziyoyev. “Taqnidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘ilshi kerak”. 2019-yil
2. Abdullaeva Q.M., Boboxanova X.Sh. va boshqalar. «Bichish tikishni o‘rgatish metodikasi». T. 2007
- 3.Keng assortimentdagi kiyimlarni loyihalash , modellashtirish va badiiy bezash Tashpulatov, M.K. Ramazanova, G.G. Alimova, Sh.G. Jo‘rayeva

Foydalanilgan internet saytlari:

1. www.textil.ru
2. [www.Roltex.ru.](http://www.Roltex.ru)
3. www.moda.ru
4. www.minikar.uz